

HARAKATLAR STRATEGIYASI DOIRASIDA O‘ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Valiyev Akbar Xalilovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbekiston tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi

akbarxon1962@mail.ru

***Annotatsiya:** Maqolada hozirgi davrning dolzarb mavzularidan biri bo‘lgan Harakatlar strategiyasi doirasida O‘zbekistonda aholi bandligini ta‘minlash masalalari mavjud manba va adabiyotlar asosida tahlil qilinadi. Maqola ijtimoiy himoya va aholi bandligi sohasidagi faoliyat ko‘rsatayotgan tadqiqotchilar uchun qiziqarli hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Harakatlar strategiyasi, ijtimoiy himoya, bandlik va mehnat munosabatlari, mehnat migratsiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkiloti.*

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТЬЮ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ ДЕЙСТВИЙ

Валиев Акбар Халилович

Джизакский Государственный Педагогический Университет

старший преподаватель кафедры История Узбекистана

akbarxon1962@mail.ru

***Аннотация:** В статье на основе доступных источников и литературы анализируются вопросы обеспечения занятости населения в Узбекистане в рамках Стратегии действий, которая является одной из актуальных тем. Статья интересна исследователям, работающим в сфере социальной защиты и занятости населения.*

***Ключевые слова:** Стратегия действий, социальная защита, занятость и трудовые отношения, трудовая миграция, Международная организация труда.*

ISSUES OF PROVIDING EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN UZBEKISTAN WITHIN THE FRAMEWORK OF THE ACTION STRATEGY

Valiev Akbar Khalilovich

Jizzakh State Pedagogical University

senior lecturer of the department

History of Uzbekistan

akbarxon1962@mail.ru

Abstract: *The article, based on available sources and literature, analyzes the issues of ensuring employment of the population in Uzbekistan within the framework of the Action Strategy, which is one of the current topics. The article is of interest to researchers working in the field of social protection and employment.*

Key words: *Action strategy, social protection, employment and labor relations, labor migration, International Labor Organization.*

Ma'lumki Respublikamizda ro'yobga chiqarilayotgan iqtisodiy islohatlarning bosh yo'nalishi mamlakatimiz aholisini moddiy ahvolini yaxshilash, uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgandir. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan ishsiz fuqorolarimizga munosib ish o'rinlarini yaratish, ularga o'zlarining ishlab ciqarishlarini yo'lga qo'yishlari uchun imtiyoz asosida kam foizli va uzoq muddatga mo'ljallangan kreditlarni taqdim etilishi, ma'lum darajada aholi bandligini ta'minlash borasida samarali natijalarni bermoqda. Sobiq sovet tuzumi davrida aholi bandligini ta'minlash borasida to'liq davlat ulushi hukmron bo'lgan bo'lsa, bugungi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy sektorning ustivorligini ta'minlanishiga erishildi.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan tadbirlarning o'zagini 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Respublikamizni rivojlantirishning 5 ta ustivor yo'nalishlari borasidagi Harakatlar strategiyasi tashkil etib, unda fuqorolarga munosib ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligi masalalariga ham katta e'tibor qaratilgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'ilishda "Aholini bandligini ta'minlash, ishsizlikni qisqartirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rishimiz zarur. Savol tug'iladi: mamlakatimizda ishsizlarning haqiqiy soni qancha? Aholining necha foizi norasmiy sektorda band? Qanchadan-qancha vatandoshlarimiz horijga ish izlab ketgan? Bitta ishsiz odam o'nta muammo ekanligini tushunishimiz kerak. Oilaga, mahallaga, jamiyatga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni baholasangiz, bu masala naqadar dolzarb ekanini ko'rasiz" [1.].

Hozirgi vaqtda bandlik va ish bilan ta'minlashning huquqiy asosi yaxlit tizim bo'lib, u bandlik va ishga joylashtirishni bevosita tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, mehnat munosabatlarga ta'sir etuvchi alohida qoidalarni o'z ichiga olgan boshqa ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativi huquqiy aktlarni o'z ichiga oladi[2. 200].

Respublikamiz aholisi yuqori darajada o'sib borayotganligi va yiliga salkam 500 ming o'rta va maxsus ta'lim muasasalari bitiruvchilarini bandligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda 2021 yilning boshida mehnat zahiralari

19 milliondan ortiq kishi bo‘lib, iqtisodiy jihatdan faol aholi salkam 15 million, ish o‘rinlariga ega bo‘lgan aholi soni 13 milliondan ortiq kishini tashkil etdi. Ish bilan band aholini iqtisodiyotimizning rasmiy sektoridagi ulushi 5 million 700 kishini, norasmiy sektorda esa 5 million 600 mingni, ish o‘rinlariga ehtiyojmand bo‘lgan fuqorolar 1 million 600 mingni tashkil etib, horijdagi O‘zbekistonlik mehnat migrantlari 1 million 800 ming kishidan iborat bo‘lgan.

2017-2021 yillar davomida barcha tarmoqlarda bo‘lgani kabi, aholi bandligini ta‘minlash borasida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin. Aholi bandligi va mehnat munosabatlari vazirligi va uning Respublikamiz viloyatlaridagi boshqarmalari o‘zlarining faoliyatlarini raqamlashtirib, XMT qarorlari talablari asosida tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida yangi davr sharoitida aholini ish bilan ta‘minlash mexanizmlarini takomillashib, jahon standartlari talablariga yaqinlashayotganligini ko‘rsatadi.

Ta‘kidlash joizki, bandlik va mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi yangi tahrirdagi qonunda davlatimizning aholi bandligi va mehnat munosabatlari borasidagi siyosati belgilangan bo‘lib, u zamonaviy davrning bandlik va mehnat qonunchiligi talablariga mos holda ishlab chiqilgan. Unda aholi bandligi va mehnat munosabatlarini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmlari, tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, band bo‘lmagan aholini turli sohadagi kasblarga o‘qitish kabi masalalar o‘z aksini topgan.

Harakatlar strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun ushbu sohaga ma‘sul bo‘lgan idora faoliyatida ham nofaol bandlik siyosatidan faol aholi bandligining siyosatiga o‘tish jarayoni boshlandi. Nofaol bandlik siyosatida asosiy e‘tibor ishsiz aholini faqat nafaqa va yordam pullari asosida qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lsa, aktiv bandlik siyosatida aholini ish bilan ta‘minlash keng qamrovli bo‘lib, yaxshi va samarali natijalar beradi. Harakatlar strategiyasidagi vazifalarni amalga oshirish jarayonida aynan aktiv bandlik siyosatidan foydalanildi.

Respublikamiz Prezidenti tashabbusi bilan birinchi marotaba Respublikamizda noformal aholi bandligi hamda yashirincha iqtisod masalalari ko‘rib chiqildi hamda uning hajmini pasaytirish borasida amaliy ishlar qilina boshlandi. Norasmiy ravishdagi aholi bandligi dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida ham bor bo‘lib, faqat salbiy bo‘lmasdan, o‘ta muhim bo‘lgan ijobiy vazifalarni ham amalga oshirgan.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi farmoni, shuningdek «Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi hamda «Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish,

ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» qabul qilgan qarorlari mamlakatimizda xufiyona iqtisodiyot va norasmiy bandlik darajasini kamaytirish va uni oldini olishga qaratilganligi bilan katta ahamiyatga egadir.

Yuqorida qayd etilgan farmon va qarorlarda xufiyona iqtisodiyot va noformal bandlik bilan shug'ullanishga to'rachilik yondoshuvi hamda taqiq qo'yish orqali hal qilmasdan, uning qonuniylik asosida iqtisodiy nuqtai nazardan qulay bo'ladigan muhitni vujudga keltirish bilan shaffoflikni ta'minlashga sharoit yaratadi.

Respublikamizda 2020 yili noformal mehnatdagi bandlikning ko'rsatgichi 2001 yildagiga qaraganda 52,6 % ko'paygan, iqtisodning rasmiylik tarmog'ida aholi bandligi 3,3 % pasaygan. Bu davrda O'zbekistondan horijga mehnat qilishga borganlar 8 marotabaga, ish joyiga ega bo'lmaganlik ko'rsatgichi 42 marotabaga, iqtisodiy aktiv fuqoralar 62 % ko'paygan. Iqtisodiyotdagi aktiv aholini yalpi mehnatdagi zahiralariga nisbatan 2001 yili 71,6 % hamda 2020 yili 77,3 % teng bo'lgan [3.].

Mamlakatimizda noformal mehnatda band aholining ijtimoiy hamda demografik ahvolidan tahlillari shuni ko'rsatadiki ulardan 32,1 % - umumiy o'rta, 61,1 % - o'rta-maxsus hamda 6,8 % - oliy ma'lumotga ega bo'lgan fuqorolarning bo'lishi aholi ma'lumoti hamda bilimining ko'rsatgichi yuqori darajada bo'lsa, mehnat munosabatlarida noformal mehnat bilan ish bilan ta'minlanganlik ko'rsatgichlari mos ravishda kamayib borishini ko'rsatadi.

Aholi bandligini ta'minlash borasidagi olib borilgan keng qamrovli tadbirlar natijasiga ko'ra 2017-2020 yillar davomida bandlik va mehnat munosabatlari tashkilotlari tomonidan aholini ma'lum sohalaridagi kasblarga o'qishga yo'naltirgan aholi soni 8,8 barobarga ko'paygan. Ishsiz fuqorolarni turli xildagi jamoatchilik ishiga joylashtirish 65 barobariga oshgan. O'rganilayotgan davrda oliy ta'lim muasasalariga qabul qilish ko'rsatgichlari 2016 yilga qaraganda 2,5 marotaba ko'payib, yoshlarni oliy o'quv yurtlari muasasalariga jalb qilish ko'rsatgichlari 9 % dan 25 % ga ko'tarilgan.

Respublikamiz aholisini noformal mehnat sohasi bilan bandligini kamaytirishdagi asosiy turlaridan nostandartli ishlar bilan band qilish turidan kengroq foydalanilsa hamda (masofavi tarzda, belgilangan ishlar jadvallari asosida, aholini o'z o'zini bandligini ta'minlashi, mavsumli va xonodondagi bandlik) aholi tomonidan o'zini o'zi band qilishning usullaridan foydalanish o'zining samarali natijalarini beradi.

Misol tariqasida o'zini bandligini ta'minlagan fuqopolarni ro'xatlarga qo'yish tartibi to'g'risida xabarlar belgilangan maxsus mobilli iliovalar, soliq to'lovchilarning o'zlariga kabinetlari bo'yicha bajarilib, bazaviy hisob-kitob hajmining bir barobari bo'yicha ikki yuzu qirq besh ming so'm miqdorida ijtimoiy soliqni to'lashlari asosida

ularni mehnati faoliyatlari natijasi bo'yicha olinadigan daromadi jismoniy shaxslarning yalpi daromadi tarkibiga kirmasligi belgilab qo'yilgan.

Bugungi davrda o'zini mehnat bilan band qilayotgan fuqorolarga 68 turdagi mehnat faoliyati (yumushlar, xizmat ko'rsatish) sohalarining yo'nalishlari belgilangan. Uni kelgusida yanada takomillashtirish borasida Respublikamiz miqyosida chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2021 yilning 1 iyuliga qadar 852400 aholi o'zini ish band qilib ro'yxatda qayd qilingan. Ulardan 310100 tasini 30 yosh atrofiga to'lgan yigitlar va xotin-qizlardan iborat bo'lgan. [3.].

Xalqaro Mehnat Tashkilotining e'tirofiga asosan, jahon bo'yicha o'zini ish bilan bandligini ta'minlaganlar 42,5 % iboratdir. Misol uchun, Yevropadagi davlatlar hamda Amerika Qo'shma Shtatlarida o'zini ish bilan band qilgan fuqorolar, aholi uchun katta hajmdagi xizmatlarning turini ko'rsatishib, ular 400 tadan ko'proqdir. Qayd etish kerakki, Respublikamizda ham mehnat faoliyatining xuddi shunday shakllaridan foydanishning imkoni mavjuddir [3.].

Respublikamiz miqyosida ilk marotaba mehnat munosabatlariga kirib kelayotgan yoshlarga munosib ish o'rinlarini yaratib, kasbu-korga o'rgatib ularning bandligini ta'minlash masalalari dalatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Respublikamiz Prezidentining tashabbuslari bilan o'tgan 2021 yilda yoshlar bandligini amalga oshirish uchun 1 gektardan er ajratildi va bu o'zining samarali natijalarini berdi.

Yangi asrimizning boshlaridan boshlab yurtdoshlarimiz horijiy mamlakatlarda mehnat qilish uchun chiqishari doimiy ravishda amalga oshirila boshlandi. Biroq ushbu horijiy mehnat migratsiyasi masalalariga uzoq yillar davomida e'tibor berilmadi. Shunday qilib, horijiy mamlakatlardagi O'zbekistonlik mehnat migrantlariga bo'layotgan munosabat ijobiy tomonga o'zgarib, ular har tomonlama qo'llab-quvvatlandi, ularni horijiy davlatlardagi huquq hamda manfaatlarini himoya qilish borasida amaliy ishlar qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Закон «О занятости населения» 20 октября 2020 г., № ЗРУ-642. (Национальная база данных законодательства, 20.10.2020 г., № 03/20/642/1396)
2. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент “O zbekiston” нашриёти, 2021. С. 200 бет.
3. <https://review.uz/uz/post/2016-2021-yillarda-mehnat-bozorida-amalga-oshirilgan-ishlar-va-erishilgan-natijalar-sharhi>
4. Валиев А. Х. Решение вопросов занятости населения в условиях Узбекистана //Будущее сферы труда: глобальные вызовы и региональное развитие. – 2019. – С. 274-279.
5. Валиев А. Х. ВОПРОСЫ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 270-279.
6. Валиев А. Х. МОЛОДЁЖНАЯ ЗАНЯТОСТЬ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 9. – С. 437-442.
7. Валиев А. Х. ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА В СФЕРЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ //Коммуникативная культура: история и современность. – 2021. – С. 117-122.
8. Валиев А. Х., Хамраев Г. Г. АМИР ТЕМУР ФАОЛИЯТИДА АҲОЛИНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯЛАШ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-2.
9. Валиев А. Х. Ижтимоий ҳимоя масаласининг ислом динидаги талқини //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2019. – №. 20.
10. Валиев А. Х. КОРОНОВИРУС ПАНДЕМИЯСИ ШАРОИТИДА ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ БАНДЛИГИ МАСАЛАЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-2.
11. Кобзева О. П., Валиев А. Х. ИЗ ИСТОРИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ НОРМАТИВНЫХ АКТОВ ПО ВОПРОСАМ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ //ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ. – С. 217.